


Xonobod shahar
Axborot – kutubxona markazi

Axborot-bibliografiya bo`limi

Sport-bu mening hayotim!

E S D A L I K



Xonobod 2026




Sport- soglom xalq,
soglom avlodning
tayanchi

Sh. Mirziyoyev

Kirish

Sport- sog'lik , hayot garovi ekanini barchamiz yahshi bilamiz. Mamlakatimizda sportga bo'lgan e'tribor tufayli O'zbekiston sportchilari sportning barcha turlarida dunyo miqyosida yuqori o'rinlarni egallab kelmoqda. Buni Parij olimpiadasi misolida ham ko'rish mumkin. Har bir sport turi bo'yicha yuqori natijalarga erishgan sportchilarimiz yurtimizga oltin, kumush va bronza medallar bilan qaytdilar. Ayniqsa, boks turi butun dunyoni lol qoldirib kelmoqda. Shu bois, yurtimizda sport bilan shug'illanish ommaviy tus olmoqda. Sog'lom turmush tarziga amal qilayotgan yurtdoshlarimiz soni kundan-kun ko'payib borayotgani ham fikrimiz dalilidir. Prezidentimizning 2020 yil 30 oktyabrdagi "Soglom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish" chora –tadbirlari to'g'risidagi farmoni esa bu

boradagi harakatlarimizdagi yangi kuch va ruh bagishladi. Erta tongdan xiyobonu ko'chalarda yugurib chiniqayotgan odamlarni ko'p uchratyapmiz.



Mamlakatimiz da jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, ommaviy sog'lomlashtirish harakatlarini targ'ib qilish, xalqaro maydonlarda ham yurtimiz nufuzini oshirish borasida samarali ishlar olib borilmoqda.

Keyingi yillarda aholi o'rtasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni keng targib qilish borasida ko'p ishlar amalga oshirildi. Mahallalarda, ko'p qavatli uylar atrofida salomatlik yo'laklari, sport maydonchalari qurildi. Ta'lim muassasalarda ham sport zallari zamonaviy tamirlanib, sport to'garaklari ochildi. Xalqimizning o'z salomatligiga bo'lgan qarashlari tubdan o'zgardi. Oilaviy sport sayliga chiqqan, farzandlarini, nabiralarini yetaklab sport to'garaklariga qatnashayotgan kishilarni ko'p uchratamiz. Sport bilan shugullanganda inson doimo soglom, tetik va baquvvat bo'ladi.

O'zbekiston havaskor boks bo'yicha jahonda eng yetakchi mamlakatlardan biri hisoblanadi va turli xalqaro reyting

hamda musobaqalarda yuqori o'rinlarni egallab kelmoqda. Bunga sabab, yosh avlodni maktablarda , o'quv yurtlarda turli sport to'garaklari tashkil etilganligi, aholi o'rtasida sportga bo'lgan qiziqishni yanada oshirish maqsadida mahallalararo turli sport musobaqalari o'tkazilib turganligi bunga misol bo'la oladi. Ko'pchilik, jismoniy tarbiya va sportni bitta tushuncha deb biladi. Lekin jismoniy tarbiya va sport mazmun mohiyati bilan bir-biridan farq qiladi. Sport- uning ma'lum bir turi bilan muntazam professional darajada shugullanish , xalqaro miqyosida yutuqlarga erishish bo'lsa, jismoniy tarbiya ko'proq aholi sogligi uchun foydali mashgulotlarni qamrab oladi.



Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli o'zgarishlar tufayli sport, ayniqsa, yoshlar o'rtasida eng nufuzli faoliyat yo'nalishlariga aylandi.

O'zbekistonning nufuzli xalqaro mukofotlariga sazovor bo'lgan ist'edodli vakillarining nomi esa mamlakatimiz va jahon sporti tarixiga muhrlangan.

Boks-sport turi, ikki raqibning sirti charm, ichi yumshoq qoplamali qo'lqoplardan qoida asosida yakkama yakka mushtlashish musobaqasi, zamonaviy boks vatani –Angliyadir.

Boksning dastlabki qoidalari shu mamlakatda qabul qilingan. Boks -1904 yildan Olimpiya o'yinlari dasturiga kiritilgan. 1974 yildan Jahon chempionati , 1979 yildan Jahon kubogi musobaqalari o'tkazib kelinadi.



Andijon viloyati sportni boks turini tashkil topishida asoschisi bo'lgan 50 yillik ish tajribasiga ega murabbiyi SSSR sport masteri, Respublika toifasidagi hakam Siddiqov Mamasodiqjonjon Tolipovich.

Siddiqov Mamasodiqjonjon Tolipovich 1953 yil 5 aprelda Sultonobod qishlogida tugilgan. 1960-1961 o'quv yili F. Engel's nomli o'rta maktabining 1 sinfiga qabul qilingan.



O'rta maktabni 1970 yil tamomlab Qirgiziston Respublikasining Jalolobod shahridagi A. S. Pushkin nomli Pedagogika bilim yurtining JT va sport bo'limiga

o'qishga kirdi Sovet armiyasi safiga xizmatga chaqiriladi va Rossiyaning Novosibirsk shahrida sport rotasida xizmatini davom ettiradi va xizmati davomida bir necha bor Sibir okrugi chempioni, Sibir va uzoq sharq chempioni bo'lib SSSR sport masteri unvonini qo'lga kiritadi.

Shundan so'ng jismoniy tarbiya va sport institutiga o'qishga qabul qilinadi. Institutning 3-kursidan oilaviy sharoitga ko'ra Toshkent shahriga O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport institutiga sirtqi bo'limiga o'qishini ko'chirib o'tadi. O'qishni sirtqi bo'limga o'tkazgach, Qo'rgontepa tumanidagi bolalar va o'smirlar sport maktabiga ishga joylashib, Sultonobod shahrida viloyatda 1-bo'lib, sport maktabi qoshida sportni boks turiga asos soladi. Bu yerdan bir necha sport ustalari, nomzodlar, Respublika va butunittifoq birinchiligi g'oliblarni yetishtirib chiqaradi, ya'ni Bolgariya Respublikasining Yambol shahrida o'tkazilgan xalqaro turnir g'olibi G'anijon Yusupov, Respublikaning bir necha bor goliblari Ahrorbek Ziyoyev, Ma'rufjon Toshboyev, Nabijon Ismonov shular jumlasidandir.



Keyinchalik Sovetobod shahridagi “suvqurilish jihozlari” ishlab chiqarish korxonasi qoshida shahar aholisining taklifi bilan “Votnik” deb nomlangan boks klubini tashkil etib, bu yerdan bir necha Respublika chempionlari Sergey Vahrunev, Andrey Lupinos, Fransiyada

o'tkazilgan Yevropa birinchiligi g'olibi xalqaro toifadagi

“Altay traktor selman” zavodi qoshida “torpedo boks klubini tashkil etib, bir necha yil ishlab, u yerlardan ham taniqli bokschilar yetishtirib chiqardi. Yevropa chempioni Anton Golovin, Aleksey Kus ular hozirda jahon va Yevropa chempioni bo’lishlari bilan birga hozirda Aleksey Kus Barnaul shahri gubernatori vazifasini bajarib kelmoqda. Qolaversa, Rossiyalik shogirdlari murabbiyni qilgan xizmatlarini inobatga olishib, Barnaul shahrida “O’zbekiston-Rossiya” qo’shma korxonasi ochib berdilar. “O’zbekiston-Rossiya Vodiy agro eksport” MCHJ korxonasini tashkil etishib, hozirda O’zbekistonda yagona hisoblangan yuqoridagi korxona qoshidagi O’zbekiston Respublikasi Prezidentiga xat orqali murojaat yo’llashib, ustozimiz O’zbekistondan Sibirga kelib, bizlarni shu darajaga yetishishimizga qo’shgan xissalarini inobatga olib, O’zbekiston va Rossiya bokschilari o’rtasida “Do’stlik” aloqalarini yanada mustahkamlashga katta hissa qo’shish maqsadida korxona qoshida boks klubi tashkil etilishiga yordam berishligini so’rab, murojaat yo’lladilar. Shundan so’ng, viloyat hokimi, Qo’rgontepa tumani sobiq xokimi A.YA. Ergashev tashabbusi bilan hozirda O’zbekistonimizda yagona hisoblanib kelayotgan “Vodiyring” boks klubi 2021 yil 29 apreldagi PQ-5099 sonli maxsus Prezidentimiz ning qaroriga asosan “Vodiyring” boks klubi tashkil etilib, hozirda faoliyat yuritib kelinmoqda. Shu qisqa besh yil davomida boks klubi o’n bir marotaba turli masshtabidagi viloyat Respublika xalqaro musobaqalar o’tkazib kelinmoqda. Bugungi kunda ushbu boks klubidan Respublika, xalqaro musobaqalari va sovrindorlari yetishib chiqmoqda. Jumladan, Xushnudbek Mamasodiqjonov, Omadjon Xoshimov, Asadbek A’zamjonov, Diyorbek Mamirboyev, Muxammadayub Shokirjonov, Amirxon Rahmonaliyevlarni misol tariqasida keltirib o’tish kifoyadir. Ular hozirda Toshkent shahridagi Bahodir Jalolov nomidagi maxsus boks

akademiyasi, Toshkent shahridagi "Olimpiya va paraolimpiya" zahiralari, sport kolleji Xushnudbek Mamasodiqjonov Chirchiq shahar "Olimpiya zahiralari" sport kollejiga muddatidan oldin, imtiyozli qabul qilinganligi ushbu boks klubidan kelajakda yurtimiz bayrogini ko'klarga ko'tara oladigan iqtidorli o'rinbosarlar yetishib, kamol topib kelayotganligidan darak berib turibdi.



Sport—
orzu-
umidimiz,
kuch -
qudratimiz
manbai

Sport-millat
salomatligi,
mamlakat
qudrati
namoyishi



Sportchi va kitobxon - jismoniy salohiyat va ma'naviy yetuklik uygunligidir. Jismoniy mashqlar tanani chiniqtirsa, mutoala aqlni o'tkirlashtiradi, ruhiyatni ko'taradi va dunyo qarashni kengaytiradi. Azaldan ota-bobolarimiz kitobni qadrlagan, uni asrab-avaylagan. Insonlarni ma'naviy olami qanchalik keng va boy bo'lsa, qalb go'zalligi tafakkur olami, atrof-muhit, tashqi olam bilan bogliq barcha harakatlari ham go'zal bo'ladi. Muomala madaniyati, so'zlashish odobi, yurish-turishi, kiyinish odobi ham uning bir bo'lagi sifatida to'ldirib turadi. U xoh yosh bo'lsin, xoh keksa bo'lsin kitob o'qigan kishi ma'naviyati yuksalib dunyo qarashi kengayib boradi. Siddiqov Mamasodiqjon aka ham shular jumlasidandir. Mamasodiqjon aka Xonobod shahar axborot kutubxona markazining eng faol kitobxonlaridan. U, yoshlarga o'rnak bo'la oladigon, o'zi oqigan kitoblarni farzandlariga hamda yosh kitobxonlarga targib etadigan kitobxonlarimizdan biridir. Hozirgi vaqtda kitobxonlarimiz uchun kutubxonamizda- 322112 nusxa dan ortiq badiiy, siyosiy, ilmiy ommabop adabiyotlar mavjud. Ustozimiz turli davlatlarda, musobaqalarda, gastrol safarlarida bo'ladi. Gastrol safari oldidan albatta kutubxonamizdan ko'plab badiiy adabiyotlarni o'zi bilan birga olib ketadi. Safar chog'ida kitob mutoalaa qilib, dam olib, ma'naviy ozuqalar olishini doim ta'kidlab o'tadi. Axborot kutubxona markazi xodimlari ham, ustozga eng yangi adabiyotlardan tavsiya qilib boradilar.



ҲОИ РЕСПУБЛИКАСИДА ХИЗМАТ КУРСАТГАН МУРРАБИЙ ЕСЕНАЛИЕВ МУРЗАБЕК АБД
 70-ЮБИЛЕЙГА БАҒИШЛАНИБ ЎТКАЗИЛГАН БОКС БЎЙИЧА ХАЛҚАРО ТУРНИРИДАН Э



КИРГИЗИСТОН МАЙ, 18-У-С/У ШАХРИ
 18-19 МАЙ 2026 ЙИЛ



Shu kunlarda
O'zbekistonda
yagona hisoblangan
O'zbekiston-
Rossiya "Vodiy-
Altay agro-eksport"
MCHJ qoshidagi
"Vodiy-Ring" boks
klubi
tarbiyalanuvchilari

Qirgiziston Respublikasining Mayluu-Suu shahrida Qirgiziston Respublikasida xizmat ko'rsatgan murabbiy Esonaliyev Murzabekning 70 yillik yubileyiga bagishlanib o'tkazilgan xalqaro turnirda ishtirok etishib, ulkan marralar bilan yurtlariga qaytdilar. Ushbu turnirda Qozogiston, Tojikiston, Qirgiziston, O'zbekiston Respublikasidan tashrif buyurgan 200 ga yaqin yosh bokschi ishtirok etgan bo'lib ushbu turnirda O'zbek Boksi sharafiga qilgan ximoya qilgan yani O'zbekiston Respublikasi bayrogi ostida ringga ko'tarilgan tumanimiz bo'kschilari ulkan galabaga erishdilar. Musobaqada Qozogiston chempioni O'ralbay Bolotov, Qirgiziston chempioni Sergey Rastorguyev ustidan golib chiqqan yosh bokschimiz –



Xushnudbek
Mamasodiqjonovni galabasi
barcha mutaxassislarni lol
qoldirdi, shuningdek turnirda
o'z vazni toifalarida turnirni
Oltin medallari bilan
taqdirlandilar. Xushnud
Xasanboyev, Asadbek
A'zamjonov, Diyorbek
Mamirbekovlarni bo'lishi

bizlarni nihoyatda gururlantirib yubordi. Ushbu galaba ustozni ham galabasi, shu munosabat bilan Xonobod shahar Axborot kutubxona markazi xodimlari ham, bokchilarni taqdirlash marosimiga qatnashib, ustozni va sportchilarimizni ushbu galaba bilan tabriklab, ularga yuksak marralarga yetishishiga, jaxon arenalarida ham O'zbekiston bayrogini ko'klarga ko'tarib jahon chempionlari yetishib chiqishiga tilak bildirdi. Bunday yirik musobaqalar xalqimiz, ayniqsa yoshlarimiz uchun katta bayram, katta mahorat maktabi bo'ladi. Mamlakatimizning do'stlik va hamkorlik sifatida xalqaro obro e'tiborini yanada oshiradi.


Bu esa Prezidentimiz tomonidan 2021yil 19-apreldagi PQ-5099 sonli qarorida ta'kidlab o'tilganidek, xozirda O'zbek boksi jahonda yetakchi o'rinni egallab turganligi ushbu mavqeyni saqlab qolish uchun O'zbekiston barcha xududlarida sportni Boks turini rivojiga katta e'tibor qaratilishi to'grisidagi-qaror ijrosini tumanimizning eng chekka xududida ya'ni Sultonobod shaharchasida –amalda bajarilishiga erishilayotganligi taxsinga sazovordir. Bu esa tumanimizdan kelajakda O'zbek boksini yanada Dunyo arenalarida ximoya qila oladigan iqtidorli Bokschilar yetishib kelayotganligidan dalolat berib turibdi. Hozirda bokschilarimiz 2026 yil davomida kalendar rejaga asosan Qozogiston Respublikasining ARIS Rossiyaning Rubsovsk- shaharlarida bo'lib o'tadigan xalqaro turnirlarda yurtimiz sharafini munosib himoya qiladigan bokschilarimiz hozirda astoydil tayyorgarlik bosqichini o'tkazishayotganligini ko'rsatib turibdi. Ushbu galabaga erishish zamirida albatta jonkuyar murabbiyimizning hizmatlari katta.Ustozimizga katta mas'uliyat yuklaydi. Qolaversa, bizni tunu kun duo qilib turuvchi, har nafasimizda qo'llab qivvatlaguvchi ota -onamiz bor ekan hali ko'p zafarli yutuqlarga erishamiz. Sportchilarimiz oz oldilariga jahon chempionlari bo'lishimiz kerak. Buning uchun imkoniyatlar barcha shart sharoitlar yetarli. Ishonamizki,

Hurmatli Prezidentimiz bunday yoshlarni albatta qo'llab - quvvatlaydi.

Siddiqov Mamasodiqjon akani har bir musobaqasidagi g'alabalari matbuotda ham e'lon qilib boriladi.

2-BET

QO'RG'ONTERA HAQIQ



ЖАЖЖИ БОКСЧИЛАРГА ИМКОНИЯТ

Мамлакатимизда спортга бўлган эътибор тўғрисида буғун спортчиларимиз дунё миқёсда юқори ўринларни эгаллаб келмоқда. Бунинг кўрсаткичи бўлиб ўтган Париж олимпиадаси мисолида ҳам қўриш мумкин. Ҳар бир спорт тури бўйича юқори натижаларга эришган спортчиларимиз юртимизга шода-шола олтин, қумуш ҳамда бронза медаллари билан қайтишди. Айниқса бокс тури бўлган дунёни лол қолдирмоқда.

Шаҳарчамизда бир неча йиллардан бўён бокс тўғрисида фаолият юритиб келинади. Дастлаб кичикгина залда иш бошлаган бу тўғрарак аста-секин кенгай борди.

Қўплаб жаҳон, осн чемпионлирини тарбиялаган, уларга бокс сирларини ўргатган собиқ СССР спорт мастери, Республика тоифасидаги қадам Солиқхон Сиддиқов ташаббуси билан 2021 йилда мамлакатимизда ягона бўлган Ўзбекистон-Россия ҳамкорлигига ташкил этилган «Водий Алтайгаро экспорт» қўша хорхонасн қўшида «Водий рикс» бокс клуби иш бошладн. Қисқа вақт ичнда ушбу клубда вилот, Республика ҳамда клубга миқёсдаги муСОақақлар голмилари еттишб қичси ва чикмоқда. Шў қулардақ-дуб боксчилари Россияни Рубновск шаҳрида бўлиб ўтадиган XXXVII-хал-

қаро турнирига таайнгарлик кўрмоқдалар. Яқинда клуб мураббийи билан биргаиқада хайридан биринга кул ўраник. Яъни, оғзининг муассасами тарбияланувчилари учун клубда таайнвор қурсини очдик. Эъни боксга қизиққан болажонларимиз қафадан уч кун бокс машууотларига қатнашдилар. Хориграча булар ўртасида турли мусобақалар ташкил этилиб, кичикнотри боксчиларимиз ўз маҳоратларини намойиш этмоқдалар. Бундан ота-оналар ҳам мамнуни.

Ташкил этилган мусобақаларда Амирхон Раҳмонов ҳамда Абдулло Баҳромжонов еттири болажонларимиз эъларининг иқтидорлари билан тентдошларига ўраник бўлмоқдалар. Бу ютуқлари эъ барчамизни қувонтирмоқда.

Таайнвор қурсини ташкил этишнингиздан мақсад ҳам мана шундай иқтидорли болажонларини саралоб олишдир. Ўйлашмики ютуқларимиз халн барбаров буллади. Бу клубдан чиққан тарбияланувчиларимиз албатта жаҳон ареналарида туриб юртимиз байроғини юқориға кўтармақда.

М. СУЛТОНОВА,
32-мактабга таълим муассасаси мудири.

[illegible]

Вакилларимиз ғолиб

Тенис шаҳрида мактаб ўқувчилари ўртасида спортнинг бокс тури бўйича об-ласть биринчилиги учун му-собақа бўлиб ўтди. Беш кун давом этган бу беллашувда район ва шаҳарлардан кел-ган 140 нафардан зиёд бокс-чи рингга чиқиб, ўз қобилият-ларини намойиш этди.

Мусобақада районимиз ва-киллари ҳам яхши тавёргар-лик билан қатнашиб, спорт мухлисларининг эътиборини қозонди. Айниқса, М. Ҳаса-нов, С. Тожиқулов ва А. Ка-римов сийраги спортчилари-миз рингда бокснинг кучли усулларини ишлатиб, рақиб-лари устидан галаба қозон-дилар. Ўзларининг қобилият-ли спортчи аканликларини исбот қилган бу боксчилар фахрли биринчи ўринни эгал-лашди. М. Маматурдиев ва А. Зиёев каби боксчилари-миз эса иккинчи ўринни олишди. Ғолиб спортчилари-миз муносиб совринлар билан тақдирландилар.

С. СИДИҚОВ,
1-белалар ва ўсмирлар спорт мактабининг бокс бўйича тренери.

РИНГДА ҲҚУВЧИЛАР

Яқинда район халқ маорифи бўлимига қарашли Ф. Энгельс номида 33-ўрта мактабнинг спорт залида бокс бўлими Х. анъанавий кишини турнир бўлиб ўтди.

У район халқ маорифи бўлимига қарашли 1-болалар ва ёшмирлар спорт мактаби ҳамда 33-ўрта мактаб ташаббуси билан уюштирилди. Турнирнинг очилиш маросимига ота-оналар ва мактабни тавомдаган собиқ боксчилар таклиф қилинди.

Турнирда Советобод шахридаги суя қурилиши материаллари ишлаб чиқариш бирлашмасининг спорт клуби ёш боксчилари ҳам иштирок этишиб, жами 40 нафар боксчи икки кун давом этган беллашувда голиблик учун куч синашдилар.

Кескин, муросасиз давом этган спорт мусобақасида район халқ маорифи бўлимига қарашли спорт мактаблари ва ўрта мактаблардан Б. Қосимов, И. Жинайдуллаев, А. Ураимов, А. Собиров, Д. Исоков, А. Камолов, Б. Топбоев, А. Араббоев, И. Шокиров, Х. Собиров, Советобод шахридан А. Мирзакулов, С. Солиев, А. Ҳахрамонов, И. Шамсуддинов, А. Олтимишев, Б. Кузнецовлар ўз вазиридан бу йилда турнир голиби бўлдилар.

Голибларга спорт мактаби 33-ўрта мактаб директори






Ustozni yana ko'plab orzulariva rejalari bisyor. Biz ham ushbu boks klubi tarbiyalanuvchilariga kelgusi musobaqalarda kattadan-katta galabalar va omadlar tilab qolamiz.







Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Siddiqov S. Shahrimiz ilgor sportchilari hamda murabbiylar faoliyatidan lavhalar: [boksning yutugi] /S.Siddiqov // Qo'rgontepa haqiqati 2025 yil, 8 noyabr. №11. -B-4.
2. Sultonova N. Jajji bokchilarga imkoniyat: [sport] / N. Sultonova // Qo'rgontepa haqiqati 2026 yil. –B-2.
3. Musayeva N. Bokschilarimiz golib:[sport] /N.Musayeva //Qo'rgontepa haqiqati 2026-yil,22 may. №7. –B-4.
4. Internet sahifalari: <https://yuz.uz/uz/news/sport--soglom-hayot-garovi>
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_boks_federatsiyasi
6. <https://olamsport.com/uz/news/boks-tarixidan-1867-yilgi-qoidalar-qanday-bolgandi>

Sport – bu mening hayotim! : [esdalik yo'l ko'rsatgich]/ R. Turg'unova, G Aminova - 2026 yil - B 12.

